



## ADOLAT KUYCHISI BERDAQ

Aliboyeva Dilrabo Dilshod qizi

Toshkent Pediatriya Tibbiyot Instituti  
2-pediatriya fakulteti 406-guruh talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10450937>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-December 2023 yil

Ma'qullandi: 28- December 2023 yil

Nashr qilindi: 31- December 2023 yil

### KEY WORDS

*Berdaq, uning asarlari, she'rlari..*

### ABSTRACT

*Maqolada adolatsevar shoir Berdaq hayoti va ijodi haqida so'z boradi. Maqolada shoir asarlarining poetik g'oyasi keng miqyosda tahlil qilinib, Berdaqning insoniylik, adolat va mardlik haqidagi she'rlari haqida so'z boradi.*

Berdaq (taxallusi ) asl ismi Berdimurod Qarg'aboy o'g'li Alisher Navoiy, Fuzuliy ,Maxtumquli va qoraqalpoq shoiri Kunxo'ja asarlarini chuqur mutolaa qilgan va ulardan o'rgangan. Berdaq ning lirik she'rlartida ,dostonlarida qoraqalpoq xalqining 18-19 – asrlardagi ijtimoiy hayoti o'z ifodasini topgan. U o'z davri voqealariga ,ijtimoiy munosabatlarga zukko shoir sifatida baxo beradi. Asarlarida tenglik, insonparvarlik, adolat va vatanparvarlik g'oyalari ilgari surildi. Berdaqning ijodida mehnatkash xalqning ahvoli asosiy mavzudir ("Bo'lgan emas ","Soliq", "Bu yil " ,"Umrin " va boshqalar ). Shoir haqiqat uchun ,mehnatkash ommaning baxti va kelajagi uchun fidokor kurashchilarni orzu qiladi ("Xalq uchun " ,"Menga kerak " , va boshqalar ). Shunday tarixiy davrlarning birida ,xalqning uzoq vaqt ezilishlaridan tinimsiz urushlardan charchaganidan ,bundan buyon yangi avlod shakllantirish maqsadida ,o'zining "Izlar edim"qo'shig'ida shunday deydi;

Zamon qanday zamon bo'ldi,

Qarag'ay boshin sho'rtan chaldi.

Bir nechchisidan ko'nglim qoldi,

Yorug' yo'lni izlar edim.

Bu gaplar shu zamondagi xalqning orzu armoni edi. Qoraqalpoqliklarning o'z mustaqilligiga uning " Menga kerak","Kerak","Yaxshiroq","Xalq uchun" kabi qo'shiqlarda aks etgan.

Shoir ijodlaridan xalqning turmushi qay darajada ekanligini uning ijodlarining mavzusidan ma'lum bo'ladi. Berdaq o'z ijodlarini hayotiy,siyosiy,pand nasihatli, muhabbat,qadimiy mavzularga asoslangan asarlariga ko'ra shoirning o'sha vaqtdagi xalqning barcha mashaqqatlaridan xabardorligidan darak beradi. Xalq boshidagi chidab bo'lmas ahvolini ko'rib va o'zi ham shu ahvolda bo'la turib quyidagi misralarni yozadi;

Berdaq der so'zim aytib ketayin,

Boqgin xo'r umrni netayin.

Bo'lmasa dunyoni xarob etayin,

Qani,menga Israpildin surur ber.

Berdaqning ijodida odamlar orasida bo'layotgan yaxshi-yomon xulq-atvor solishtirilib aks ettirilgan. Misol uchun ;

Dushmanin g'am qilib ,do'stni shod etib,

Kecha-yu Kunduz ota-onasin yod etib.

Xizmat etar ota-ona xaqqi uchun-deb,yaxshilikni ta'riflasi,

"Yomon odam bo;yar qizil qonida ,

Qo'l uzatar sening yegan noningga.

Yomon odam shunday bo'lar fe'li uchun,

"Yomon yo'ldosh o'z foydasiga ko'ndirar.

Bu qo'shiqda yaxshi va yomonlikka berilgan ta'riflari yoshlar uchun ,Yoshi kattalar ,xotin-qizlar uchun "Odam "degan nomini ardoqlab eng yuqori odamgarchilikni shakllantirishda urg'u bo'ladi. Berdaq yashagan zamon, bu ulkan jamiyatli kurashlar zamoni bo'ldi.Bu to'g'risida faqatgina qo'shiqlarida emas balkim "Ko'rindi", "Zamonda ","Panoh ber","Oqibat" kabi qo'yozmalarda ham yozilgan.

Uning "Zamonda "qo'shig'ida quyidagi misralar keltirilgan ;

O'ylasang bu dunyo bepayon ekan,

Dushman isi xalqqa ko'p ayon ekan.

Boylar qashqir,tulki,xalq quyon ekan,

Qorong'u qoplagan qayg'u zamonda .-deb yozadi.

Shoir lirikasida zamoni aks ettirib berish qobiliyati kuchli edi . U 19-asrda "Xorazm", "Shajara", "Omongeldi", shunga oxshash o'zining tarixiy dostonlari bilan madaniyatimizning tengi yoq ulkan yozma esdaliklarini yaratdi.

Hammamizga yaxshi tanish Berdaqning "Bolam "qo'shig'I orqali biz xalqning yumorlik ajoyib fazilatlarini koramiz.Shoir xalqning o'g'il qizlari o'zining pandu nasihatlarini aytib ,bilganlarini qog'ozga tushiradi .

Shu orqali shoir odamga nisbatan insoniylik fazilatini yaratadi.Yaxshi ,ildam qadam tashlab yurishlariga undaydi.shoorni "Yaxshiroq" qo'shig'ida ,xalqqa xizmat qilishdan ortiq baxt yo'qligini dono fikrlar bilan eslatib o'tadi.

Shoirning Xorazm xalqlarining "Xorazm dostoni ", "Qoraqalpoqliklar tarixi","Shajara " dostonlarini yozganligi o'zi ulkan meros.Shu bois Berdaqni qoraqalpoqning birinchi tarixchisi deb bilishgan. Berdaq umrining oxirigacha ijodini davom ettirdi .Xalqni qadrlagan Berdaqni xalq ham aslo unutmaydi. Maktablar,kinotetrlar va kochalarga Berdaq nomi berildi.Berdaq nomidagi Qoraqalpoq milliy universtitetida Berdaq nomidagi stipendiya tasis etildi.Berdaq ijodini chuqur organishga moljallangan kurslar tashkil etildi.muzeylar tashkil etildi.Hozirgi kunda berdaq nomi xalqimizning milliy faxriga aylandi.

Chaqqon odim tashlab, mehnat qilmasang,

Kun ko'rmoqlik qiyin bo'ldi bu zamon.

Maqsadingga o'ylab-o'ylab yetmasang,

Qiyin bo'ldi kun ko'rmoqdik bu zamon.

Berdaq o'zining "Soliq", "Bo'lgan emas", "Bu yil" kabi she'rlarida xon va beklarning olib borayotgan siyosatini qoralaydi, ularning mehnatkash xalqqa o'tkazayotgan zulmini, shafqatsizligini tasvirlaydi. Berdaq insonni yuksaklikka ko'taradi, xalqni katta kuch ekanligini ta'kidlab, hukmron sinf vakillarini mehnatkash xalqni hurmat qilishga, ularga yordam berishga chaqiradi. Shoir o'zini xalqning ajralmas bir qismi, deb tasavvur qiladi.

So'zim o'lmas, doim tirik qolaman,  
Xalqim bor-ku, yovdan o'chim olaman...

Berdaq o'zi yashayotgan tuzumni, uning tartiblarini tanqid ostiga oladi. Shoirning fikricha, mavjud siyosiy tuzum mehnatkash xalqni haq-huquqlarini va manfaatlarini himoya qila olmaydi. Bunday tuzumda faqat adolatsizlik, haqsizlik, ta'magirlik, o'zboshimchalik va boshqa insonga xilof illatlar hukm suradi. Shoir zolimlardan zorlanib bunday deydi:

Zolimlar tinglamas faqirning zorin,  
Ular o'ylar o'z foydasin, o'z qornin,  
Hech qachon zolimlar qo'ldagi borin,  
Ep qo'rmaslar, bor bo'lsada, xalq uchun.

Berdaq o'zining ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan asarlarida, Sharqning boshqa mutafakkirlari kabi jamiyatni odil va ma'rifatli podshoh boshqarishi lozim, degan fikrga keladi. U o'z davridagi adolatsiz va zolim xon davlatni boshqarishga yaroqsiz, deb hisoblaydi. Shoirning "Omongeldi", "Xalq uchun", "Aydosbiy", "Yaxshiroq", "Bo'lgan emas", "Yernazarbiy" asarlarida qoraqalpoq xalqining xonlar zulmiga qarshi qahramonona kurashi, milliy-ozodlik harakati aks ettirilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz" Sh.M.Mirziyoyev. 2018
2. "Berdaq – milliy madaniyatimizning buyuk ko'rinishi" nomli uslubiy qo'llanma.. 2013 y.
3. B. Gurbanboyev Berdaq va o'zbek adabiyoti, T., 1986 yil
4. I. Sagitov. Berdaxtning ijodi. Nukus. 1977 yil.
5. Berdaq. Tanlamaly shygarmalar zhygynagy. Nukus. 1977.99b.

INNOVATIVE  
ACADEMY